

**MAKTABGACHA TA'LIM " FAN VA TABIAT " RIVOJLANTIRISH
MARKAZIDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi,

**Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus
ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi**

Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna

Annotatsiya: Ushbu maqoladan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari ish faoliyati jarayonida " Fan va tabiat " rivojlantirish markazida innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan. " Fan va tabiat " rivojlantirish markazida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ularni tarbiyalanuvchilarga tushunarli qilib yetkazib berish nazarda tutilgan.

**THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE "SCIENCE AND
NATURE" DEVELOPMENT CENTER FOR PRESCHOOL EDUCATION.**

The Center of pedagogical excellence of the Jizzakh region,

**Preschool, primary and special
education teacher of the Department of Teaching Methods**

Ruzikulova Suraya Mukhiddinovna

Abstract: This article provides information about the use of innovative technologies in the "Science and Nature" development center in the work of preschool educators. The use of innovative technologies in the "Science and Nature" development center is intended to convey them to students in an understandable way.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЦЕНТРЕ
РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ «НАУКА И ПРИРОДА».**

Центр педагогического мастерства Джизакской области,

**Дошкольное, начальное и специальное
преподаватель кафедры методики обучения**

Рузикулова Сурайя Мухиддиновна

Аннотация: В статье представлена информация об использовании инновационных технологий в работе воспитателей дошкольного учреждения

центра развития «Наука и природа». Центр развития «Наука и природа» ставит своей целью использовать инновационные технологии и сделать их понятными для учащихся.

Kalit so'zlar: axloq, metod, usul, vosita, tarbiya, tarbiyalanuvchilar, ertaklar, hikoyalar, televizor, tarbiyachi, rasmlar, besh markaz, fan va tabiat markazi.

Ключевые слова: этика, метод, средства, средства, образование, ученики, сказки, рассказы, телевидение, педагог, картинки, пять центров, центр науки и природы.

Ключевые слова: мораль, метод, средство, методы, воспитание, ученики, сказки, рассказы, телевидение, воспитатель, картинки, пять центров, центр науки и природы.

Kirish Jadal rivojlanish yo'ldan borayotgan mustaqil davlatimizda yuksak ma'naviyatli, raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun ijodiy rivojlantiruvchi muhitni yaratish ularning to'laqonli ta'lim olishlarining asosiy omillaridan biridir. Rivojlantiruvchi muhit deganda, nafaqat ta'limiy faoliyat va ko'rgazmali qurollar, darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar kabi didaktik vositalar, mebel jihozlari va kompyuter texnikasini, balki ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hurmati va ishonchga asoslangan ijodiy muhitni tushunish lozim. Shuningdek, rivojlantiruvchi muhit maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani o'rab turgan, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, binolarning rejalashtirilishi va o'lchamlari, hovlidagi o'yin maydonchasi, guruhdagi mebel, materiallar, jihozlar, o'yinchoqlar, atrofda o'sib turgan yashil makonni o'z ichiga oladi. Guruh xonasining estetik jozibador bezatilishi bolalarga ham, tarbiyachilarga ham o'zlarini qulay his etishlari uchun yordam beradi. Yorqin, ajralib turadigan fragmentlar bilan almashinib turuvchi neytral ranglar, iliq tabiiy yoritilish, shinamlik va quvnoq harakatlanishni tartibga soladi, xavfsizlikni ta'minlaydi, shovqin darajasini kamaytiradi, ijodiy kayfiyat muhitini yaratadi. Mebellarning muvofiq tarzda joylashtirilishi bino ichidagi

maydondan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi, bolalarning xona bo'ylab harakatlanishini osonlashtiradi, tarbiyachiga bolalarni kuzatib turishi uchun qulaylik yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar har bir yoshda o'zini o'rab turgan muhitdan aynan o'zini qiziqtirgan hayotiy malakani oladi. Muhit qanchalik toza va musaffo bo'lsa bolaning inson sifatida shakllanishida shunday toza va musaffo ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu jarayonning o'ziga xos qonuniyatlari mavjud. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni to'laqonli maktab ta'limiga tayyorlashda kattalarning ular bilan mazmunli suhbatlari va bolalikni rivojlantiruvchi muhiti bilan boyitish zarur.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Shunday qilib, rivojlantiruvchi muhit, o'yinchoqlar, o'yin vositalari, moddiy resurslar, rivojlanish markazlaridagi jihozlar, ko'rgazmali qurollar yordamida bolani aqliy, jismoniy, psixologik rivojlantirishga pedagogik ta'sir o'tkazishni anglatadi. Yaxshi jihozlangan rivojlantiruvchi muhitsiz to'laqonli ta'limiy faoliyatni tashkil etishning iloji yo'q. Chunki, uning asosiy poydevorini bolalar yangidan-yangi bilim oladigan "Rivojlantiruvchi markaz" tashkil etadi. Guruhda hech bir narsa shunchaki joylashtirilishi mumkin emas. Har bir buyum chuqur o'ylangan holda, bolalarning bilimini oshirishga xizmat qiladigan, tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan holda joylashtirilishi lozim, hattoki bir dona kartina bo'lsa ham. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida ta'limiy faoliyat mazmuni quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati bo'yicha yuritilishini nazarda tutadi:

1. Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi.
2. Syujetli-rolli o'yinlar va drammalashtirish markazi.
3. Til va nutq markazi.
4. Fan va tabiat markazi.
5. San'at markazi.

Qurish, konstruksiyalash va matematika markazida turli xildagi va shakldagi predmetlar mavjud bo'lib, bolalar o'z xayollariga tayangan holda tarixiy obidalar, uylar, garaj, maktab, do'kon, bog'cha kabi inshootlarni bunyod etadilar. Qurilish

bilan bog‘liq bo‘lgan bu yerda bolalarda quruvchi kasbiga nisbatan qiziqish, mehr va hurmat tarbiyalanib boradi. Syujetli-rolli o‘yinlar va drammashtirish markazida odob-axloq, tarbiyaviy jihatlar namoyon bo‘ladigan markaz hisoblanadi. Ushbu markaz qanchalik materiallarga boy bo‘lsa, undagi voqea-hodisalar ham shunchalik rang-barang bo‘ladi. Bu yerda bola hech kimga ko‘rsatmaydigan iqtidorini namoyon etishi, syujetdagi bosh qahramon kabi qo‘rqmas, dovyurak va mehribon bo‘lishga intilishini ko‘rsatishi mumkin. “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan” deb boshlanuvchi va “murod-maqsadiga yetibdi” deb yakunlanuvchi ertaklarni bolalar sevib sahnalashtiradilar, undagi atributlar hech bir bolani befarq qoldirmaydi. Til va nutq markazi - tinch burchak ko‘rinishidagi markaz hisoblanadi. Unda bolalarda kitobga bo‘lgan mehr va qiziqish paydo bo‘ladi. Tarbiyachi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o‘qiydi, bolalar ko‘z o‘ngida voqea-hodisa gavdalanadi. Shuning bilan birga bolalarda tinglash malakasi ham shakllanadi. Ushbu markazning asosiy maqsadi bolalarni syujetlarni o‘ylab topish va ijro etish, hikoyalar eshitish, kichik hikoyalar tuzishga yo‘naltiradi. Fan va tabiat markazi – ushbu markazda bolalar ilk tabiiy-ilmiy tushunchalar bilan tanishadilar. Bolalar olgan bilimlarini ushbu markazda amaliyotda sinab ko‘radilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak bu markaz bolalarning eng sevimli markazlaridan biri hisoblanadi. Bu markaz orqali bolalar atrof-olamda uchraydigan narsa-predmetlar bir kun kelib tugashi, yo‘qolishi, kamayib ketishi mumkinligini bilib oladilar.

Olingan natijalar va ularning tahlili

"Fan va tabiat" markazi agar sezayotgan bo‘lsangiz bolalarning eng sevimli markaziga aylanib bormoqda. Chunki bolalar markaz orqali juda ko‘p tajribalarni o‘zlari, ularga ruxsat etilmagan ayrim tajribalarni tarbiyachi, kattalar yordamida o‘tkazmoqdalar va qiziqtirgan narsalarni bilib olmoqdalar. Markazning asosiy maqsadi bolalarni tabiat va tevarak atrofdagi xodisalar bilan tanishtirish, jonli va jonsiz tabiatni farqlash, undagi turli xil mavjudotlarning yashash tarzlari haqidagi ma’lumotlarni olishga o‘rgatish. Inson organizmi to‘g‘risidagi dastlabki bilimni ham mana shu markazda oladilar, Mikroskop, elektr asboblari, oshxona jihozlaridan

foydalanishdagi havfsizlik qoidalari, tosh, suv, tuproqning xususiyatlari bilan tanishish ham aynan shu markaz mavzulariga kiradi. Demak markazning asosiy vazifasi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilganligiga yana bir bor iqror bo'ldik. Markaz faoliyati ko'proq kattalar bilan birga tashkil etiladi. Chunki bolalar xavfsizligini ta'minlash lozim. Markazga qo'yiladigan jihozlar barchasi bola hayotiga xavf solishdan yiroq bo'lishini ta'minlash lozim. Ularni ishlatilgandan so'ng markazdan olib qo'yiladi. Aynan shu tajribalarni o'tkazilgan foto suratlar bilan bolalar olgan bilimlari mustahkamlanadi. Hafta mavzusidagi jihozlardan foydalanish ehtiyoji tug'ilganda ertalabki va kechki soatlarda tarbiyachi yordamida o'tkazilgan tajribalar boshqa bolalar bilan ham tashkil etiladi. Markazni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Markaz faoliyatiga olib kelingan har qanday predmet, mahsulot nazoratga olinadi. Qaerda ishlab chiqilganligiga e'tibor qaratiladi.
2. Markaz o'tkir tig'li, bola hayotiga havf soluvchi predmet va jihozlardan holi bo'lishi lozim.
3. Markazga tabiat, tevarak atrofga oid fotosuratlar, ta'limiy o'yinlar, mavzular asosida turli jihozlar va materiallar bo'lishi kerak. "Ilm, fan va tabiat" markaziga atrofdagi olam bilan tanishtirish, tabiat bilan tanishtirish, ekologiya mashg'ulotlari kiritilgan.

Xulosa

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida olib boriladigan integratsiyalashgan ta'limiy faoliyat bolalarni ongli ravishda va samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi. Rivojlanish markazlarida bola shaxsining rivojlanishida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining rivojlanish sohalariga integratsiyalashgan yondashuv bola rivojlanishining yaxlitligini ta'minlaydi. Rivojlanish markazlari pedagoglar bolalarga ular nima bilan va qaerda shug'ullanishni xohlayotgan bo'lsalar, shunday imkoniyatni taqdim etish uchun imkon yaratadi. Har bir markazda mavjud bo'lgan materiallar bolalarga darhol va doimiy natijaga ishonishingiz mumkin emas.

Natijaga darhol erishilmasligini tushunib, allaqachon qo'llanilgan usullarni takrorlash va yangilarini tanlash kerak va ehtimol biz rejalashtirgan shaklda ham, sifatda ham emas. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda bolani qanday harakat qilishni o'rgatish bilan bog'liq amaliy usullar ustunlik qilishi kerak. Agar siz faqat ongga tayansangiz, ijobiy xulq-atvorning ahamiyatini tushunsangiz va bunday xatti-harakatlar usullarini o'rgatmasangiz, hech qanday natija bo'lmaydi. Usullar alohida holda emas, balki qo'shib, o'zaro bog'langan holda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sh.Mirziyoyev – “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “O‘zbekiston” – 2017. 157-158-betlar
 2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22 dekabrda gi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.
 3. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T.:2022
 - 4.Mualliflar: Shin A.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Grosheva I.V. va boshqalar. “Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish” T.:2020 y.
 - 5.Maktabgacha ta’lim tashkilot ta’lim faoliyatini mavzuviy rejalashtirish” T.:2019
- www.ziyonet.uz
www.arxiv.uz
WWW.kitob.uz